

TA'LIM MENEJMENTIDA "STRUKTURAVIY BOSHQARUV" TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA TASHKILIY TURLARI

O. X. Olimjonova

NamDu tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14604978>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimi sifati va samaradorligini ta'minlash omillari, ularning mazmuni, mohiyati va ahamiyati, shuningdek, ta'lim menejmentida "strukturaviy boshqaruv" tushunchasining mohiyatiga tashkiliy turlari haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Tayanch tushunchalar: Struktura, maktabgacha ta'lim tizimi, ta'lim sifati, ta'lim tizimi, boshqaruv, rahbar faoliyati, uzluksiz ta'lim, samaradorlik, rivojlantirish, takomillashtirish, omillar, mexanizmlar, barkamol shaxs, kommunikativlik, kognitivlik.

Аннотация. В данной статье содержится информация о факторах обеспечения качества и эффективности системы дошкольного образования, их содержании, сущности и значении, а также способах обеспечения качества и эффективности ДОО.

Основные понятия: структура, система дошкольного образования, качество образования, система образования, управление, лидерская деятельность, непрерывное образование, эффективность, развитие, совершенствование, факторы, механизмы, всесторонне развитая личность, коммуникативность, познавательность.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi shart-sharoitlarni o'zgarishiga olib keladi. Bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatda ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini zamonaviy mehnat bozori talablariga muvofiq moslashtirib borishlari zarur bo'ladi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turi bo'lib, maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim xizmatlari buyurtmachilari, davlat va jamiyat, otalarning ehtiyojlari shuningdek, umumiy o'rta ta'lim (boshlang'ich ta'lim)ning talablariga qarab mo'ljallanishi hamda MTT rahbari faoliyatining mazmunini yangilashni nazarda tutadi.

"Boshqaruv" so'zi odatda aniq bir maqsadga erishish uchun boshqariluvchi ob'ekt yoki tizimga faol ta'sir ko'rsatishni anglatadi. Bu, o'z navbatda, ma'lum bir rejalashtirilgan faoliyatni ifodalaydi. Har qanday faoliyat boshqariladigan ob'ekt va boshqaruvchi sub'ekt tizimlaridan iborat bo'lib, mazkur tizimlar o'rtasidagi aloqa insonlarning o'zaro munosabatlaridan tashkil topadi va mavjud o'zaro munosabatlar ularning faoliyatini ifodalaydi. Shunday ekan ixtiyoriy faoliyat albatta boshqaruvni talab etadi, shaxsning individual faoliyatida inson o'zini o'zi boshqaradi va ko'zlangan natijalarga erishadi, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish uchun o'zaro ta'sir yoki shaxsning boshqa shaxslarga nisbatan ta'siri zarur bo'lib, bu o'z mohiyatiga ko'ra boshqaruvni, ya'ni ma'lum bir maqsadga erishish yo'nalishida insonlar faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishni ifodalaydi.

Ta'lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish deb esa pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilishga aytiladi.

Bugungi kunda pedagogika faniga ta'lim muassasalarini boshqarish bo'yicha yangidan-yangi tushunchalar kirib kelyapti, ularning mohiyati avvalgilardan ham teranroqdir. Masalan, «ta'sir etish» tushunchasining o'rniga «o'zaro harakat», «hamkorlik», «refleksiv boshqarish» kabi tushunchalar qo'llanilmoqda.

Mustaqillikdan so'ng mamlakatimizda ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta'lim menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o'zaro hurmat bilan tavsiflanadi.

Ta'lim menejmenti nazariy fan sifatida pedagogika yo'nalishlarida o'qitila boshlandi. Ta'lim menejmenti fani ta'lim muassasalari raxbarlarining boshkaruv faoliyati, boshkaruv mas'uliyati va madaniyati, boshkaruv funktsiyalari va metodlari, boshqarishning qonun-qoidalari va tamoyillari, raxbar va lider fazilatlar, ta'lim muassasasi raxbarlarining funktsional vazifalari, ta'lim muassasalarini boshqarishda axborot va kommunikatsiya, rahbarlarning innovatsion faoliyatlari, boshqaruvda tarbiyaviy munosabatlar va rahbarlik uslublari, ta'lim muassasalarining tashkiliy tuzilishi, strategik boshqaruv va rejalashtirish, rahbarning ish vaqti va undan foydalanish, personalii boshqarish xamda ta'lim muassasalarini boshqarishda motivlashtirish va motivlashtirish nazariyalarini tadqiq etadi¹.

Maktabgacha ta'lim tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi, eng avvalo, yuksak malakali rahbar kadrlar faoliyati bilan belgilanadi. Shu boisdan pedagogik jamoani boshqarish, ta'limning yuqori ko'rsatkichlariga erishib borishda ta'lim muassasalari rahbarlaridan "strukturaviy boshqaruv" malakalariga ega bo'lib borishni talab qiladi.

Boshqaruv faoliyati – ta'lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv faoliyatini ikkita sub'ektning, ya'ni rahbar bilan ta'lim tizimining o'zaro bog'liq faoliyati sifatida qarash mumkin. Bunday holatda rahbarning boshqaruv ob'ekti boshqarish va o'zini-o'zi boshqarish kabi zaruriy xususiyatlarga ega bo'lgan ta'lim tizimi hisoblanadi, turli xil ta'sirlar asosida, boshqarilayotgan ta'lim muassasasi ham o'z o'rnida boshqaruv natijalariga va boshqaruv sub'ektiga ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish va boshqarishda pedagoglar faoliyatining muvofiqlashtirilishi, ta'lim muassasasi barcha xodimlarining o'z mehnat faoliyatlari natijalaridan teng asosda qoniqish hosil qilishlari, jamaodagi to'g'ri mehnat taqsimoti, xodimlarda o'z vazifalariga nisbatan mas'uliyat hissining shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi².

Strukturaviy boshqarish deganda boshqaruv bo'g'inlari va bosqichlari miqdori va tarkibi tushuniladi. Strukturaviy boshqarishning oddiy va tushunarli bo'lishi uning ish qobiliyati yuqori bo'lishini kafolatlaydi, ya'ni boshqaruv tashkiliy tuzilmasida bosqich va bo'g'inlar qancha kam bo'lsa, boshqarish shunchalik samarali bo'ladi.

Boshqaruv bo'g'inlari - bu bitta yoki bir-qancha vazifalarni bajaruvchi mustaqil tarkibiy unsurlardir. Tuzilma unsurlari, ularning bo'linmalari va boshqaruv apparatida ishlovchilardir. Boshqaruv bosqichlari - bu boshqarish biror darajasidagi ma'lum bo'g'inlar yig'indisidir. Shu belgisiga ko'ra boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari - ko'p bosqichli (ko'p bo'g'inli), uch, ikki

¹ Р.Х.Джураев ва С.Т.Турғунов. Таълим менежменти. Т.: "VORIS-NASHRIYOT", 2006 йил. 9-б

² Файзуллаева Н.С., Гулбоев К.Р. таълим тизимида стратегик бoшқарувнинг амалий жиҳатлари // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 5, июль, 2012 йил
https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/Fayzullayeva_Gulboyev.pdf

bosqichli (bo'g'inli) bo'ladi. Bosqichlar va bo'g'inlar o'rtasidagi aloqa vertikal va gorizontal bo'lishi mumkin. Vertikal bo'g'inlar rahbarlarning ularga bo'ysunuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni, gorizontal aloqalar boshqaruvning teng huquqli bo'g'in va unsurlari o'rtasidagi munosabatlarni bildiradi.

Boshqaruv tashkiliy tuzilmasini shakllantirishda boshqaruv pog'onalari va zvenolari soni, chiziqli va funktsional boshqaruvning markazlashuvi darajasi, boshqaruv bo'limi va funktsiyalari tarkibi, bitta rahbarga to'g'ri keladigan bo'ysunuvchilar sonini asoslash zarur.

Boshqaruv tizimida pog'onalar qancha ko'p bo'lsa buyruqni yuqoridan pastga va axborotni pastdan yuqoriga uzatish shuncha qiyin bo'ladi. Buyruqni va axborotni uzatish jarayonida buzilishning xavfi shunchalik yuqori bo'ladi. Shuning uchun boshqaruv tashkiliy tuzilmasini loyihalashtirish va mukammallashtirishda boshqaruv pog'onalari soni optimal bo'lishiga intilish zarurdir.

Har qanday tashkiliy tuzilmaning sifati uning shakllantirishda quyidagilarga qanchalik amal qilingani bilan aniqlanadi:

tizimli yondoshuv, ya'ni boshqaruv ob'ekti va organiga ta'sir qiluvchi iloji boricha hamma faktorlarni hisobga olish;

boshqaruv markazlashuvi va birlamchi zvenolar mustaqilligining optimal birligi; oliy rahbarlar to'g'ridan-to'g'ri ijro etuvchiga axborotni borishi va vaqtning maksimal qisqarishi;

loyihalashtirilayotgan tuzilmada har bir tarkibiy qismning funktsiyasi vazifasi va huquqini to'g'ri aniqlash.

"Struktura" – lotincha so'z bo'lib, narsalar tarkibiy qismlarining o'zaro bog'lik ravishda joylashishi, tuzilishini bildiradi.

Boshqarish strukturasi deganda boshqaruv maqsadlarini amalga oshiruvchi va funktsiyalarni bajaruvchi bir-biri bilan bog'langan turli boshqaruv organlari va bug'inlarining majmui tushuniladi.

Boshqarishning u yoki bu vazifalarini xal ilish uchun muayyan organlar tuziladi. Boshqarish organlari tizimi, quyi organlarning yuqori organlarga bo'ysunishi va ular o'rtasidagi o'zaro aloqa boshqarish strukturasi tushunchasini tashkil qiladi. Bunday struktura odatda *"boshqaruv apparat strukturasi deb* yuritiladi. U biron-bir boshqaruv organining (maktabgacha ta'limning boshqaruv apparati x.k) bo'limlari tarkibini bildiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish buyruq va o'zini o'zi boshqarishning birligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Boshqaruv tizimi ikkita tuzilmadan iborat bo'lib, ularning faoliyati maktabgacha ta'lim tashkiloti Ustavi va tegishli me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti nazorat va nazorat qilish tizimiga ega. Boshqariladigan tizim o'zaro bog'langan jamoalardan iborat: pedagogik - xizmat ko'rsatish - tibbiy - bolalar.

Boshqarish strukturasi boshqarish apparatining operativ ishlashini ta'minlashi lozim.

Bu faoliyat joriy vazifalarni o'z vaqtida va mohirlik bilan tez hal etishda namoyon bo'ladi. Bunda pedagogik jarayonning miqyosi, murakkabligi, boshqarish ob'ektlarining joylashuvi ham ta'sir ko'rsatadi.



Boshqarish strukturasi turlari.

Xulosa qilib aytganda, boshqarish strukturasi qanchalik mukammal bo'lsa, ta'lim va tarbiya jarayoniga ta'sir o'tkazish shunchalik samarali amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotini samarali boshqarish bugungi kunda muhim va dolzarb masala sifatida ko'rilmogda. Shu bois, O'zbekistondagi barcha davlat MTT larida yangi **direktor o'rinbosari** lavozimi joriy qilinmogda. Bu ish sifatini oshishiga hamda samarali boshqarishga yordam beradi. Ta'lim tashkilotining tuzilishi maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan hal qilinadigan vazifalarga mos keladi, maktabgacha ta'lim tashkilotining boshqaruv mexanizmi uning barqaror ishlashini belgilaydi.

References:

1. Р.Х.Джуроев ва С.Т.Турғунов. Таълим менежменти. Т.: "VORIS-NASHRIYOT", 2006 йил. 9-б
2. Файзуллаева Н.С., Гулбоев К.Р. таълим тизимида стратегик бошқарувнинг амалий жиҳатлари // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 5, июль, 2012 йил
https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/Fayzullayeva_Gulboyev.pdf
3. Toporovskiy V.P. Integrativnyy podxod k formirovaniyu upravlencheskoy kompetentnosti direktora razvivayushcheyshy shkoly: Dis. ... d-ra ped. nauk. – SPb., 2002. – 331 s.
4. Xo'jaev A.A., Xeyki Lentinin. O'zbekiston o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent, 2001. – 126 b.
5. Makarov S. Menedjer za rabotoy. – M.: Molodaya gvardiya, 1989. – 239 s.